

**2019 YILNING YANVAR-IYUN
OYLARIDA QURILISH ISHLARI**

Raqamlar:

Qurilish ishlari

hajmi -

1835,0 mlrd.so'm

Yirik pudrat tashkilotlari ulushi

- 16,3 %

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi -

53,0 %

Norasmiy sektor ulushi –

30,7 %

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida jami 1835,0mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,3 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 298,4 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,3% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,0% ni

tashkil etdi.

Kichik korxona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,0% yoki 972,9 mlrd.so'm to`g`ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,0%ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 30,7 % yoki 563,7 mlrd.so'm to`g`ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 145,0 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari


- hajmi - **298,4 mlrd.so'm**
- o'sish sur'ati - **129,0 %**

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- hajmi - **972,9 mlrd.so'm**
- o'sish sur'ati - **129,0 %**

Norasmiy sektor

- hajmi - **563,7 mlrd.so'm**
- o'sish sur'ati - **145,0%**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 1340,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 537,8 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 212,2 mlrd .so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 60,9 mlrd. so'mga ko'paygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 282,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 73,8 mlrd. so'mga ko'paygan.




Yanvar- iyun oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Yanvar- iyun oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi


- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 16,0 % ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,7 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 42,0 % va norasmiy sektorning ulushi 42,0 % ni (2,7 % ga ko`paydi) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 33,5 % ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,5% ga ko`paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 66,5 % ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,5 % ga kamaydi .

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 4,8 % ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,6 % ga ko`paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga 95,2 % to`g`ri kelib o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,6 % punktga kamaydi.



**2019 yil yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha
qurilish ishlari**



Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo`yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar- iyun oyida 248,3 mlrd.so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 130,4 % ga bajarildi.


	Jami		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)	2018 yil yanvar- iyun ga nisbatan % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi
Toshkent viloyati	1835,0	133,3	100,0
Nurafshon shahri	70,1	124,3	3,8
Olmaliq shahri	87,4	130,3	4,8
Angren shahri	80,5	135,3	4,4
Bekobod shahri	80,0	128,8	4,4
Ohangaron shahri	58,3	135,5	3,2
Chirchiq shahri	88,5	128,5	4,8
Yangiyo'l shahri	36,4	160,4	2,0
Oqqo'rg'on tumani	47,9	124,9	2,6
Ohangaron tumani	48,7	121,5	2,7
Bekobod tumani	56,6	130,6	3,1
Bo'stonliq tumani	103,7	140,0	5,7
Bo'ka tumani	38,9	121,0	2,1
Quyichirchiq tumani	35,8	163,5	2,0
Zangiota tumani	248,3	130,4	13,4
Yuqorichirchiq tumani	140,9	138,3	7,6
Qibray tumani	146,7	155,5	8,0
Parkent tumani	96,2	124,3	5,2
Piskent tumani	27,5	134,4	1,5
O'rtachirchiq tumani	98,7	119,8	5,4
Chinoz tumani	54,6	138,0	3,0
Yangiyo'l tumani	60,0	146,4	3,3
Toshkent tumani	129,3	130,0	7,0


Shuningdek, qurilish ishlari hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Qibray tumanida (146,7 mlrd. so'm yoki 155,5 %), Yuqorichirchiq tumanida (140,9 mlrd. so'm yoki 138,3 %), Toshkent tumanida (129,3 mlrd. so'm yoki 130,0 %) va Bo'stonliq tumanida (103,7 mlrd. so'm yoki 140,0 %) bajarilgan.


Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Piskent tumani (27,5 mlrd. so'm yoki 134,4 %), Quyichirchiq tumani (35,8 mlrd. so'm yoki 163,5 %) va Bo'ka tumani (38,9 mlrd. so'm yoki 121,0 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





**2019 yilning yanvar- iyun oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida
hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)**



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlaringning katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlaringning 13,4 %ini, Qibray tumanida 8,0 %ni va Yuqorichirchiq tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 7,6 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Piskent tumanda bu ko`rsatkich eng past 1,5 %ni tashkil etdi. Yangiyo'l shahri 2,0 %ni va Quyichirchiq tumanida 2,0 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlaringning hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



“Investitsiya va qurilish statistikasi” bo’limi

Nashirga mas’ul: B. Djavliyev

Tel.: 230-86-70, (71)